Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

BILINGVAL LEKSIK KOMPETENSIYANI BAHOLASHDA XALQARO PSIXOLINGVISTIK TESTLAR

Xilolahon Aliyorjonovna Miraxmedova*

✉ hilolamirax@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bilingval leksik kompetensiyani baholashda qo‘llaniladigan xalqaro psixolingvistik testlar qiyosiy tahlil qilingan. Peabody Picture Vocabulary Test, Expressive Vocabulary Test, LexTALE va uning o‘zbek tiliga moslashtirilgan LexUz varianti, Boston Naming Test hamda Verbal Fluency Testning baholash obyekti, topshiriq shakli va psixolingvistik imkoniyatlari yoritilgan. Tahlil natijalari mazkur vositalar retseptiv lug‘at, ekspressiv lug‘at, leksik tanib olish, so‘zni xotiradan chaqirib olish va verbal ravonlik kabi turli mexanizmlarni o‘lchashini ko‘rsatadi. Biroq alohida test bilingval leksikonning tillararo faollashuv, leksik raqobat, ishlov berish tezligi va kognitiv nazorat kabi barcha tarkibiy jihatlarini bir vaqtda qamrab olmaydi. Shu sababli bilingval ishtirokchilarni baholashda til juftligi, yosh, til tajribasi va madaniy muhitni hisobga olgan kompleks diagnostik yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar

bilingval leksikon, leksik kompetensiya, psixolingvistik diagnostika, retseptiv lug‘at, ekspressiv lug‘at, leksik qaror, nomlash, verbal ravonlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278275

Kirish

Bilingval shaxsning leksik kompetensiyasi ikki tildagi so‘zlar miqdori bilangina belgilanmaydi. U so‘zni eshitish yoki o‘qish orqali tanib olish, ma’noni faollashtirish, zarur leksik birlikni xotiradan chaqirib olish, uni nutqda qo‘llash va ikki til o‘rtasidagi raqobatni boshqarish jarayonlarini ham qamrab oladi. Shuning uchun bilingval leksikonni baholashda bitta ko‘rsatkichka tayangan testlar yetarli ma’lumot bermasligi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab retseptiv va produktiv lug‘at hajmini o‘lchashga mo‘ljallangan standart testlar bilan bir qatorda leksik ishlov berish, semantik faollashuv, nomlash, verbal ravonlik va kognitiv nazoratni baholovchi vositalar ham ishlab chiqildi [1]. Ularning ayrimlari ta’limiy baholash uchun, ayrimlari klinik diagnostika yoki psixolingvistik eksperiment uchun yaratilgan. Demak, test natijasini talqin qilishda uning dastlabki maqsadi, standartlashtirilgan guruhi va topshiriq tabiati hisobga olinishi lozim.

Maqolaning maqsadi xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan leksik testlarni baholash obyekti va psixolingvistik mexanizmiga ko‘ra qiyoslash, ularning bilingval tadqiqotlardagi imkoniyatlari hamda cheklovlarini aniqlashdan iborat. Tahlil PPVT, EVT, LexTALE va LexUz, BNT hamda VFT misolida amalga oshirildi.

Materiallar va usullar

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil va psixolingvistik talqin usullaridan foydalanildi. Har bir test to‘rt mezon bo‘yicha ko‘rib chiqildi: baholash obyekti, topshiriq shakli, faollashadigan asosiy psixolingvistik mexanizmlar va bilingval ishtirokchilarga tatbiq etishdagi cheklovlar. Bunday yondashuv turli maqsadda yaratil-

gan testlarni faqat umumiy ball asosida emas, balki ular o‘lchaydigan jarayonlar asosida taqqoslash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

Retseptiv va ekspressiv lug‘atni baholash vositalari

Peabody Picture Vocabulary Test retseptiv lug‘at zaxirasini baholashga mo‘ljallangan standartlashtirilgan vositadir [2; 3]. Testda ishtirokchi eshitilgan so‘zga mos rasmni bir nechta variant orasidan tanlaydi. Topshiriq fonologik shaklni qabul qilish, uni semantik xotiradagi ma’no bilan bog‘lash va vizual obrazga moslash jarayonlarini qamrab oladi. Og‘zaki javob talab qilinmagani sababli PPVT nutq ishlab chiqarish qiyinchiliklarining ta’sirini kamaytiradi va retseptiv lug‘atni nisbatan tez baholash imkonini beradi.

PPVT natijasi ishtirokchining so‘zni mustaqil qo‘llay olishini ko‘rsatmaydi. Rasmlarni tanish darajasi madaniy muhitga bog‘liq bo‘lishi, tarjima qilingan shaklda esa leksik va madaniy ekvivalentlik buzilishi mumkin. Bilingval bolaning bir tushunchani tillar bo‘yicha taqsimlangan holda bilishi ham alohida tilda olingan ballni pasaytirishi ehtimolini tug‘diradi.

Shuning uchun PPVT natijasi til tajribasi haqidagi ma’lumot va produktiv lug‘at ko‘rsatkichlari bilan birgalikda talqin qilinishi kerak.

Expressive Vocabulary Test ishtirokchining rasmdagi obyekt, harakat yoki holatni nomlashini, ayrim topshiriqlarda esa sinonim yoki mazmunan yaqin so‘zni aytishini talab qiladi [4]. Bu vazifada semantik xotiradan leksik birlikni chaqirib olish, fonologik kodlash, nutqiy rejalashtirish va og‘zaki ifodalash ketma-ketligi ishga tushadi. EVT shu tariqa faol lug‘atdan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi va PPVT bilan birgalikda qo‘llanganda retseptiv hamda ekspressiv lug‘at o‘rtasidagi farqni aniqlashga yordam beradi.

Ekspressiv topshiriq natijasi talaffuz, nutq sur’ati va javob berishga tayyorlikka ham bog‘liq. Bilingval ishtirokchida ikki tildagi ekvivalentlar bir vaqtda faollashishi mumkin; bu holat kerakli so‘zni tanlashni sekinlashtiradi yoki boshqa tilda javob berishga olib keladi [5]. Shu bois javobning to‘g‘riligi bilan birga javob tili, o‘zini o‘zi tuzatish, semantik yoki fonologik almashtirish kabi sifat ko‘rsatkichlarini ham qayd etish maqsadga muvofiq.

Leksik tanib olish va qaror qabul qilish testlari

LexTALE ingliz tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘zlashtirgan katta yoshli ishtirokchilarning leksik bilimini qisqa vaqtda baholash uchun ishlab chiqilgan [6; 7]. Unda haqiqiy so‘zlar va til qoidalariga o‘xshash soxta so‘zlar taqdim etiladi, ishtirokchi esa har bir birlikning so‘z yoki so‘z emasligini belgilaydi. Natija orfografik shaklni tanib olish, mental leksikondagi ma’lumot bilan taqqoslash va qaror qabul qilish aniqligini aks ettiradi.

LexTALEning qisqa vaqtda o‘tkazilishi va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkoniyati psixolingvistik tadqiqotlar uchun qulaydir. Biroq test asosan retseptiv leksik tanib olishni o‘lchaydi. Ishtirokchining so‘z ma’nosini chuqur bilishi, uni kontekstda qo‘llashi yoki og‘zaki nutqda chaqirib olishi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot bermaydi. Haqiqiy va soxta so‘zlarni tanlashda orfografik qonuniyatlar muhim bo‘lgani uchun testni boshqa tilga mexanik tarjima qilish mumkin emas. Chastota, morfologiya va grafik tuzilish qayta meyorlashtirilishi zarur.

LexTALE tamoyili asosida ishlab chiqilgan LexUz o‘zbek tili materiallarida leksik tanib olishni baholashga xizmat qiladi [8]. Uning milliy til xususiyatlariga moslashtirilishi o‘zbek tilidagi leksik va orfografik bilimni o‘rganish uchun muhimdir. Shu bilan birga, LexUz ham asosan so‘zni tanib olish natijasini beradi; produktiv qo‘llash, tillararo o‘tish va leksik chaqirib olish jarayonlari uchun qo‘shimcha topshiriqlar talab etiladi.

Nomlash va verbal ravonlik testlari

Boston Naming Test dastlab afaziyani diagnostik baholash doirasida ishlab chiqilgan, keyinchalik neyropsixologiya va bilingvalizm tadqiqotlarida ham qo‘llanila boshlagan [9]. Ishtirokchi tasvirlangan obyektni nomlaydi. Ushbu vazifa obyektni vizual tanish, semantik reprezentatsiyani faollashtirish, leksemani tanlash, fonologik shaklni tiklash va artikulyatsiya qilish bosqichlarini qamrab oladi. Shu sababli BNT leksik chaqirib olishdagi qiyinchilik qaysi bosqichda yuzaga kelayotganini sifat jihatdan tahlil qilishga imkon beradi.

Bilingvallarda nomlash natijasi til ustunligi, kundalik qo‘llanish chastotasi va til muhitiga bog‘liq. Bir tilda kam ishlatiladigan so‘z ikkinchi tilda osonroq chaqirib olinishi mumkin. Tillararo raqobat javob vaqtining uzayishi, kod almashinuvi yoki ekvivalent so‘zni boshqa tilda aytishga sabab bo‘ladi [10]. Test tasvirlarining madaniy tanishligi ham natijaga ta’sir qiladi. Demak, BNT ballini monolingval meyorlar bilan bevosita taqqoslash bilingval ishtirokchining real leksik imkoniyatini to‘liq ifodalamasligi mumkin.

Verbal Fluency Test ma’lum vaqt ichida belgilangan mezonga mos imkon qadar ko‘p so‘z aytishni talab qiladi [11]. Semantik ravonlik vazifasida ishtirokchi hayvonlar, mevalar yoki kasblar kabi bir kategoriyaga oid so‘zlarni sanaydi. Fonemik ravonlik vazifasida esa muayyan tovush yoki harf bilan boshlanadigan so‘zlar ishlab chiqariladi. Javoblar sonidan tashqari takrorlar, qoida buzilishi, semantik guruhlash va bir guruhdan boshqasiga o‘tish xususiyatlari ham tahlil qilinadi.

VFT semantik tarmoqni faollashtirish, qidiruv strategiyasi, leksik chaqirib olish, keraksiz javobni to‘xtatish va diqqatni nazorat qilish jarayonlarini bir vazifada birlashtiradi. Shu jihatdan u leksik bilim bilan ijroiy nazorat o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Bilingvallarda natija tildan foydalanish darajasi va til ustunligiga qarab farqlanadi [12]. Biroq past ball lug‘at kamligi, sekin chaqirib olish yoki nazorat strategiyasidagi qiyinchilikdan kelib chiqqanini alohida topshiriqlarsiz aniq ajratish qiyin.

Testlarning qiyosiy psixolingvistik xususiyatlari

Tahlil qilingan testlar bir xil «lug‘at darajasi»ni emas, leksik jarayonning turli bosqichlarini baholaydi. Quyidagi jadval ular o‘rtasidagi asosiy farqlarni umumlashtiradi.

Test	Baholash obyekti va vazifa	Asosiy psixolingvistik mexanizm	Asosiy cheklov
PPVT	Retseptiv lug‘at; eshitilgan so‘zga mos rasmni tanlash	Fonologik qabul, semantik faollashuv, audiovizual moslash	Produktiv qo‘llashni o‘lchamaydi; madaniy tasvir ta’siri mavjud
EVT	Ekspressiv lug‘at; rasmni nomlash yoki sinonim aytish	Leksik chaqirib olish, fonologik kodlash, nutqiy rejalashtirish	Talaffuz, nutq sur’ati va tillararo raqobat natijaga ta’sir qiladi
LexTALE va LexUz	Leksik tanib olish; haqiqiy va soxta so‘zni farqlash	Orfografik ishlov, mental leksikon bilan taqqoslash, qaror qabul qilish	Ma’noni chuqur bilish va produktiv qo‘llash haqida to‘liq ma’lumot bermaydi
BNT	Nomlash; rasmdagi obyekt nomini aytish	Vizual tanish, semantik faollashuv, leksema tanlash, fonologik tiklash	Madaniy tanishlik va tildan foydalanish chastotasiga sezgir
VFT	Verbal ravonlik; kategoriya yoki harf bo‘yicha so‘zlar ishlab chiqarish	Semantik qidiruv, leksik chaqirib olish, ingibitsiya, ijroiy nazorat	Lug‘at hajmi bilan nazorat jarayonlari ta’sirini ajratish qiyin

1-jadval. Bilingval leksik kompetensiyani baholovchi testlarning qiyosiy xususiyatlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, retseptiv tanib olishdan tortib vaqt bilan cheklangan leksik ishlab chiqarishgacha bo‘lgan vazifalar turli kognitiv talab qo‘yadi. Masalan, PPVTda og‘zaki javob talab etilmaydi, EVT va BNTda esa aniq leksemani chaqirib olish zarur. VFTda leksik bilim bilan birga qidiruv strategiyasi va ingibitsiya ham natijani belgilaydi. Shu sababli ushbu testlar balllarini bir xil mazmundagi ko‘rsatkich sifatida qabul qilish mumkin emas.

Bilingval baholashda metodik talablar

Bilingval ishtirokchini baholashda testning til va madaniy muhitga mosligi birinchi talab hisoblanadi. So‘z chastotasi, o‘zlashtirish yoshi, morfologik tuzilish, orfografik shaffoflik va tasvirlarning tanishligi tillar bo‘yicha bir xil emas. Shuning uchun testni tarjima qilishning o‘zi ekvivalent shakl yaratmaydi. Stimullarni tanlash, ekspert bahosi, pilot sinovi va yosh guruhiga mos meyorlarni ishlab chiqish zarur.

Ikkinchi talab ishtirokchining til tajribasini hujjatlashtirishdir. Tilni o‘zlashtirish yoshi, uyda va ta’limda qo‘llanadigan til, har bir tildan foydalanish chastotasi, til ustunligi va kod almashinuv odati natijaga ta’sir qiladi. Bir xil umumiy ball turli til tajribasiga ega ikki ishtirokchida bir xil mexanizmni anglatmasligi mumkin.

Uchinchi talab natijani ko‘p o‘lchovli talqin qilishdir. Aniqlik balliga qo‘shimcha ravishda javob vaqti, xato turi, tillararo almashinuv, semantik va fonologik parafaziyalar, takrorlar hamda o‘zini o‘zi tuzatish holatlari qayd etilsa, leksik

jarayon haqida kengroq ma’lumot olinadi. Retseptiv, produktiv va vaqtga asoslangan topshiriqlarni birlashtirish bilingval leksikonning kuchli va qiyin jihatlarini farqlash imkonini oshiradi.

Natijalar va muhokama

Xalqaro testlar bilingval leksikonni o‘rganish uchun muhim metodik asos yaratadi, ammo ularning diagnostik qiymati tadqiqot savoliga mos tanlangandagina yuqori bo‘ladi. Retseptiv lug‘atni baholash uchun PPVT, faol lug‘at va nomlash uchun EVT yoki BNT, orfografik leksik tanib olish uchun LexTALE turidagi vazifa, tezkor semantik qidiruv va kognitiv nazorat uchun VFT maqbul. Bu vazifalar bir-birini almashtirmaydi; ular leksik ishlovning turli bosqichlarini ko‘rsatadi.

Bilingvallik sharoitida leksik natija har bir tildagi alohida bilim bilan birga tillararo o‘zaro ta’sirni ham aks ettiradi. Shuning uchun monolingval meyorga nisbatan past natijani avtomatik ravishda leksik yetishmovchilik sifatida baholash mumkin emas. Ishtirokchi tushunchani boshqa tilda bilishi, muayyan so‘zni kam qo‘llashi yoki raqobat sababli uni kechroq chaqirib olishi mumkin. Diagnostikada har ikki tilni baholash va konseptual jihatdan to‘g‘ri javoblarni ham hisobga olish mazkur xatoni kamaytiradi.

Tahlil kompleks milliy vosita yaratishda kamida bir nechta komponent zarurligini ko‘rsatadi: so‘z ma’nosini anglash, leksemani mustaqil chaqirib olish, orfografik yoki fonologik tanib olish, ishlov berish tezligi, tillararo ekvivalentni boshqarish va semantik munosabatlarni anglash. Har bir komponent uchun stimullar o‘zbek tilining chastota, morfologik va madaniy xususiyatlari asosida tanlanishi, natijalar esa yosh va til tajribasiga ko‘ra meyorlashtirilishi lozim.

Xulosa

PPVT, EVT, LexTALE va LexUz, BNT hamda VFT bilingval leksik kompetensiyaning turli jihatlarini baholaydi. PPVT retseptiv lug‘atni, EVT ekspressiv lug‘atni, LexTALE turidagi testlar leksik tanib olishni, BNT nomlash va leksik chaqirib olishni, VFT esa vaqt bilan cheklangan leksik qidiruv va ijroiy nazoratni o‘lchaydi. Ularning har biri muayyan diagnostik vazifada samarali, ammo hech biri bilingval leksikonning barcha mexanizmlarini yakka holda qamrab olmaydi.

Bilingval baholash uchun testni tadqiqot maqsadiga muvofiq tanlash, til juftligi va madaniy muhitga moslashtirish, har ikki til bo‘yicha ma’lumot to‘plash hamda aniqlikni javob vaqti va xato turlari bilan birgalikda tahlil qilish zarur. Shu asosda tuzilgan kompleks diagnostik tizim bilingval ishtirokchining leksik bilim darajasinigina emas, balki ushbu bilimdan foydalanish jarayonini ham aniqroq tavsiflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Kohnert K. Language Disorders in Bilingual Children and Adults. 3rd ed. San Diego: Plural Publishing. – 2020.

[2] Sobirova Z. Neyropsixolingvistika: nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Farg‘ona. – 2025.

[3] Dunn L. M., Dunn D. M. Peabody Picture Vocabulary Test. Fifth Edition PPVT 5. Bloomington, MN: Pearson Assessments. – 2019.

[4] Williams K. T. Expressive Vocabulary Test. Third Edition EVT 3. Bloomington, MN: Pearson Assessments. – 2018.

[5] De Groot A. M. B. Language and Cognition in Bilinguals and Multilinguals. New York: Psychology Press. – 2011.

[6] Sobirova Z. Neyropsixolingvistika: nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Farg‘ona. – 2025. – B.168.

[7] Lemhöfer K., Broersma M. Introducing LexTALE: A Quick and Valid Lexical Test for Advanced Learners of English. Behavior Research Methods. – 2012. – №2. – P. 325-343.

[8] Sobirova Z. Neyropsixolingvistika: nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Farg‘ona – 2025. – B.190.

[9] Goodglass H., Kaplan E., Barresi B. Boston Diagnostic Aphasia Examination. 3rd ed. Philadelphia: Lippincott Williams and Wilkins. – 2001.

[10] Gollan T. H., Weissberger G. H., Runnqvist E., Montoya R. I., Cera C. M. Self ratings of spoken language dominance: A multilingual naming test and preliminary norms for young and aging Spanish English bilinguals. Bilingualism: Language and Cognition. – 2012.

[11] Benton A. L., Hamsher K. Multilingual Aphasia Examination. 3rd ed. Iowa City: AJA Associates. – 1989.

[12] Bialystok E., Craik F. I. M., Luk G. Bilingualism: Consequences for Mind and Brain. Trends in Cognitive Sciences. – 2012. – №4. – P. 240-250.